



SHARQDA INTEGRATIV TA'LIMOTNING ILDIZI

R.Q. Ashurbayeva

Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti O`zbek Tili Va Adabiyoti, Rus Tili,

Pedagogika Va Psixologiya Kafedrası Assistenti, Uzbekistan

ABSTRACT: - In this article, the development of the initial view of integrative processes, there are general comments on the integrative activities carried out by many of our great scientists in different periods of the East.

KEYWORDS: integration, period, scientist, knowledge, industry, renaissance, East, science communication, physical education, modernism.

INTRODUCTION

“Integratsiya “ atamasi asosida olam mavjudligi, koinotda “bir-birining o`rnini to`ldirish”, “bir-biri bilan vobastalik” kabi kategoriyalar mavjudligini Sharq mutafakkirlari yaxshi bilishgan. Tabiat qonuniyatlari asosidagi hodisalar va jamiyat bilan bog`liq tushuncha, voqelik va hokazolarning o`zaro uyg`unligi sharqda garchi to`g`ridan to`g`ri “integratsiya” atamasi bilan atalmasa-da, ushbu kategoriya sharq olimlari tomonidan amalga oshirilgan har bir ishda, ilmiy jarayonda ular uchun dasturilamal bo`lganligi alohida sharhga muhtoj emas. “Integratsiya” atamasi g`arb olimlari

tomonidan fanga kiritilgan bo`lsa-da, bu atama ildizi sharq olimlarining ijodi va faoliyatida o`z aksini topgan. Ularning buyuklik siri balkim, shundandir. Vaholanki, butun jahonga tanilgan sharq olimlari birgina fan sohasi bilan shug`ullanmay, ko`plab fanlardan fundamental bilimga ega bo`lishgan. Ular har bir fan bir-birini to`ldirishi, bir-biri bilan aloqadorlikda mukammallik kasb etishini tushunishgan.

Tarixga nazar solar ekanmiz, qomusiy sharq olimlarining ilmiy-falsafiy qarashlari nafaqat o`z davriga, o`z makoniga, balki butun insoniyatga, kelajak avlodlar taqdiriga tegishli ekanligini ko`ramiz. Zero, mavjud adabiyotlar va fikrlar tahlili asosida Markaziy Osiyodagi

“SHARQDA INTEGRATIV TA'LIMOTNING ILDIZI”

xalqlarning milliy-madaniy uygʻonish davrini uchga boʻlishi mumkin:

1. IX-XII asrlar – arab bosqinidan keyingi davr.
2. XIV-XV asrlar moʻgʻul istilosidan keyingi davr.
3. XX asr boshlari va hozirgi davr kolonial bosqin va Sovet davridan keyingi siyosiy, milliy, madaniy Uygʻonish¹.

Birinchi davr “Sharq renessansi” deb nomlangan va tarixda chuqur iz qoldirganligi maʼlum. Mazkur davrda davlat yuritish ishlari va siyosatdagi yangiliklar ilm-fan kishilarini ezgu gʻoyalar tevaragida birlashtirdi, turli-tuman fanlarga, ayniqsa, matematika, astronomiya, kimyo, tibbiyot, huquq, geodeziyaga qiziqish kuchaydi va dunyo tuzilishi haqidagi zamonaviy nazariyalarga aynan oʻsha davrda asos solindi. Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Fargʻoniy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshgʻariy, Mahmud Zamaxshariy, imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Moturudiy, Abul Muin Nasafiy kabi buyuk ajdodlarimiz serqirra isteʼdod sohiblari boʻlishlari bilan bir qatorda, oʻz fanlari boʻyicha butun olamga ustozlik maqomiga erishdilar. Mazkur davr dunyo taraqqiyotining yuksalish tamoyillarini belgilab berdi, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Buning yorqin isboti – Xorazmda barpo etilgan Maʼmun akademiyasidir.

Daho mutafakkirlarni oʻz bagʻriga toʻplagan bu oliy dargoh nafaqat oʻz mintaqasi, balki butun dunyo uchun akselerator vazifasini oʻtaganiga tarix guvoh. Sferik trigonometriya, oʻnli raqamlarning tizimli qoʻllanishi, trigonometriyada “funktsiya” tushunchasining paydo boʻlishi, joʻgʻrofiy koordinatlarining aniq ifodalanishi, Yer sayyorasining sferik globusi, qattiq va suyuq moddalarning solishtirma ogʻirligi, minerallar tasnifi, quruqlik tarkibiy jismlarining harakati va qatlamlar hosil

boʻlishi, dengiz va materiklarning joylashuvi, tibbiy va farmatsevtik bilimlarning bir tizimga solinishi, tashxislash va davolashning yangi usullari, maʼdanlar transmutatsiyasi imkonlarining tahlili – bular yurtimizda IX-XI asrlarda yashab ijod qilgan buyuk ajdodlarimizning tabiiy va aniq fanlarda amalga oshirgan innovatsion gʻoyalarining baʼzilari, xolos. Muso al Xorazmiyning faolyatiga solar ekanmiz, uning matematika, musiqa, astronomiya, geografiya, etnografiya, tarix, musiqa fanlari yuzasidan fundamental bilimga ega boʻlib, ulardan ilmiy faoliyatida keng foydalangan. Bu fanlar ichidan matematika fanining yukasalishida ulkan hissasini qoʻsha olgan.

Ikkinchi Renessans nafaqat mintaqamizda, balki juda katta joʻgʻrofiy hududlarda siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirgan ulugʻ bobomiz, sohibqiron Amir Temur nomi bilan chambarchas bogʻliq. U zot tufayli qudratli markaziy boshqaruvga asoslangan davlat va yangi madaniy-ilmiy yuksalish uchun qulay vaziyat yuzaga keldi.

Ikkinchi renessans davri “Islom madaniyatining oltin asri” deb atalishi bilan birga, fazo ilmi va matematika fanlarining rivojlanishi bilan yurtimizda ikkinchi Uygʻonish, yaʼni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda – ulugʻ ulamolar: Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturudiy, Burhoniddin Margʻinoniy, Abul Muʼin Nasafiy kabi;

mumtoz shoir va mutafakkirlar: Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulugʻbek, Gʻiyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi;

tarixchilar: Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi:

musavvirlar, koʻplab xattot va sozandalar, musiqashunos va meʼmorlar: Mahmud

¹<https://hozir.org/1-uygonish-davri-tushunchasi-markaziy-osiyo-renessansi-va-uni.html>

Muzahhib, Kamoliddin Behzod va boshqa iqtidor egalari maydonga chiqdilar va qadim sharqning shuhratini dunyoga yoydilar.

Birinchi Renessans davrida bo'lgani kabi bu davrda ham ilm o'rganishni istovchilar butun dunyodan oqib kela boshladilar². Shunisi diqqatga sazovorki, Temur va uning avlodlari adabiyot va san'atga, ilm-fanga yaqin kishilardan bo'lib, ulardan 22 ta ijodkor-shoir bo'lib, ular o'zlari she'r yozish bilan birga ijodkorlarga homiylik ham qilgan. Xalil Sulton, Xusayn Boyqaro kabilar o'z she'rlaridan devon tuzgan³ liklari ham fikrimizni dalillaydi. Ayniqsa, jahon qomusiy olimlarga sardor bo'la oladigan mir Alisher Navoiy dahosi bu davrda serqirraligi, integrativlik tamoyillari asosida faoliyat yuritganligi tahsinga loyiq. Uning hayoti va faolyatini o'rganish davomida, uning shoir, adabiyotshunos, tilshunos, tarixchi, tasavvufshunos, siyosatshunos, astronom, musiqashunos, muhandis, geograf, zoolog, iqtisodchi, matematik, leksikograf, jismoniy mashqlar bilimdoni, arab va fors tillar bilimdoni, davlat arbobi, ilm-fan homiysi sifatidagi ulug' ishlaridan boxabar bo'lamiz.

Uchinchi davrda yashab o'tgan jadidchilik harakat namoyondalari haqida ham alohida to'xtalib o'tish joiz, chunki ularning taraqqiy topgan davlat qurish haqidagi orzulari, strategiyalari, o'zbek ta'lim tizimiga qo'shgan hissalarini hech bir siym-zar bilan o'lchab bo'lmaydi. Tarix sahifalarida Abdulla Avloniynig yetuk salohiyati va birgina soha bilan cheklanib qolmasdan, turli sohalar bilan aloqadorlik asosida faoliyat olib borganligi haqidagi ma'lumotlarga duch kelishimizning o'ziyoq, yuqoridagi fikrimizni asoslaydi, desak bo'ladi. Arab, fors, rus tillarini mukammal o'rgangan olim, jamoat arbobi, shoir, muharrir, o'qituvchi, o'zbek teatriga ulkan hissa qo'shgan yozuvchi birgina sohada

faoliyat yuritish bilan cheklanmaganligini ko'ramiz.

Turkistondagi milliy uyg'onish – jadidlar Renessansini xorijdagi olimlar ham yuksak darajada e'tirof etadilar va hamon ularning ilmiy-falsafiy, didaktik meroslariga qayta-qayta murojaat etishadi. Shu o'rinda yapon olimi Xisa Komatsu o'zining «Chig'atoy gurungi»da «Turk dunyosini uyg'otish yo'lida jon tikkan adiblar» iborasini ishlatilishi va nemis olimasi Ingobarg ham Turkiston uyg'onishi haqidagi yozganini eslash kifoyadir⁴.

Yuqorida nomlari sanab o'tgan buyuk siymolar va ularning ulug'likka daxldor faoliyatlari, aslida, integrativlik zanjirining muyyan ko'rinishlaridir. Ularning o'lmas meroslaridan hali ko'p-ko'p avlodlar bahramand bo'lmoqlari tayin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent sh., 2020-yil 24-avgust. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. Ashurbayeva R. K. The concept of integration and its application in education. "International Scientific Journal Theoretical & Applied Science" (ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085). –Year: 2020 Issue: 02 Volume: 82. –83-86 p. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42658976>
3. Ashurbayeva R. K. Effective methods of teaching the mother tongue in the education system. "International Engineering Journal For Research & Development". Vol.5 Issue 7E-ISSN NO: -2349-0721.

²<https://mininnovation.uz/oz/news/2449>

³<https://hozir.org/1-uygonish-davri-tushunchasi-markaziy-osiyo-renessansi-va-uni.html>

⁴<https://hozir.org/jadidchilik-harakati-va-milliy-uygonish.html>

<https://iejrd.com/index.php/%20/article/view/1313>

4. Ashurbayeva R. K. Ways of effective Implementation of Integration. Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN 2694-9970. Pag.45-51.
<https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/308>
5. Ashurbayeva R. K. Интеграционный подход в системе образования. Colloquium-journal (ISSN 2520-6990 ISSN 2520-2480). (Warszawa, Polska).– №12 (64), 2020 Część 3 (DOI: 10.24411/2520-6990-2020-11799).
<https://cyberleninka.ru>
6. Бабанский Ю.К. Ҳозирги замон умумий таълим мактабида ўқитиш методлари. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 277 б.
7. Жабборов А., Неъматова Г. Она тили таълимида когнитив психология, вербал таълим ва ижодкор шахс масаласи // Тил ва адабиёт таълими. – 2001. – № 6.
8. Hojiyev A. Tilshnoslik terminlarining izohli lug`ati.–Toshkent: O`zME, 2002.– 44 b.